

TARLON OBRAZI JAHON NASRI KONTEKSTIDA (L.TOLSTOY “XOLSTOMER”, E.SETON-TOMPSON “YOVOYI YO‘RG‘A”, CHINGIZ AYTMATOVNING “ALVIDO, GULSARI” ASARLARI MISOLIDA)

Xuramova Dilorom Xamroqulovna

Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani 25-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

E-mail: xuramova.dilorom@bk.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21932518>

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida ot obrazini eng yuksak darajada tasvirlagan va obraz sifatida yorqin aks ettirgan, o‘zbekona udumlari-yu ko‘pkarisi bilan birga adabiyotni titratgan asar Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asaridagi Tarlon ot obrazidir.

Kalit so‘zlar: obraz, Tog‘ay Murod, ot, Tolstoy, Tarlon, yozuvchi.

Аннотация. В узбекской литературе образ лошади, наиболее ярко и художественно воплощённый как литературный персонаж, представлен в образе коня Тарлона из произведения Тогай Мурода «Вечер, когда заржал конь». Благодаря изображению национальных узбекских традиций и игры купкари это произведение оставило глубокий след в литературе.

Ключевые слова: образ, Тогай Мурод, лошадь, Толстой, Тарлон, писатель.

Abstract. In Uzbek literature, the horse image that has been depicted at the highest artistic level and vividly reflected as a literary character is Tarlon, the horse in Togay Murod’s novel “The Evening When the Horse Neighed”. Through its portrayal of national Uzbek traditions and the game of kupkari, this work has left a profound impact on literature.

Keywords: image, Togay Murod, horse, Tolstoy, Tarlon, writer.

Ot obrazni yaratish uchun yozuvchidan katta mahorat, bilim, ot parvarishi va xususiyatlariga doir chuqur ko‘nikmalar zarurdir. Bundan tashqari yozuvchi bu asarni yaratishdan oldin, o‘zi o‘qigan va tarjima qilgan asarlardan poydevor sifatida foydalangan. Xususan, Tolstoyning “Xolstomer” asari, E.Seton-Tompson “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari, Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” asarlari. Bu to‘rt fundamental asarlar mavzu jihatidan ot obrazini markazda ushlab tursa-da, g‘oyaviy va adiblarning asarlarida obrazga yondashuv hamda qarashlari turlichadir.

Adabiyotshunos Nurislom To‘xliyevning “Armon” maqolasida Tarlon obrazining boshqa asarlardagi ot obrazlari bilan mahurat bilan yaratilganlik darajasi juda yorqin ifodalanadi: “Ot kishnagan oqshom” dagi Tarlon laqabli otning jonli, serjilva tasvirlaridan behad ta’sirlangan edim. Adib ot obrazini shu qadar hayajon va mehr bilan, ishonarli qilib yozganki, beixtiyor Tolstoy asaridagi Xolstomer, Aytmatovning Gulsarisi yodingizga keladi. O‘shanda o‘zimizda ham Aytmatovlar yetishib chiqyabdi ekan, deb ko‘nglim g‘ururga to‘lgan edi”. Yana bir adabiyotshunos Vafo Sayfullah yozganidek: “...Aytmatov ijodiga xos go‘zal ko‘ngil, samimiy mehr, insonparvarlik, jonivorsevarlik Tog‘ay Murod ijodida ham yorqin ko‘zga tashlanib, kishi qalbini zabt etadi, tuyg‘ularini sel qiladi. Odamiylikdan saboq beradi. Mana uning “Ot kishnagan oqshom” qissasi. Otga munosabat insonga qadrdon bir jihat. Ming yillardan buyon buyuk ko‘chish-u har xil zafarli-zafarsiz yurishlar, umuman, tirikchiligi otsiz o‘tmagan turkiylar, o‘zidan olislashib borayotgan do‘sti-hamkorini o‘ylaganda, otga mehribonlik bilan yondashib keladi. Shu jihatdan Tog‘ay Murodning bu mavzuga murojaati tasodif ham emas, yangilik deb ham bo‘lmaydi, o‘ziga xosligi esa shu mavzudagi asarlar misolida ko‘rinadi. Kanada adibi Ernest Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari va qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissalarini dunyoning million-million kitobxonlari mutolaa qilishgan, taqdirlashgan”[1].

Buyuk rus adibi, dunyoga mashhur asarlar yaratuvchisi Lev Tolstoyning “Xolstomer” asari chin ma’noda yangi davr adabiyotidagi ot obrazlariga o‘z ta’siri o‘tkazgan, o‘zgacha uslubi va tili bilan yangi yo‘nalishni boshlab bergan adabiy-badiiy namunalardan biridir. Asarning undan oldingi va keying hayvonlar obrazlari aks etgan asarlardan asosiy farqi u otning o‘z tilidan hikoya qilinadi. Uning hayvon sifatidagi tuyg‘ulari, yuksalish-u evrilishlari, boshidan o‘tkazgan barcha voqealar, to navqiron otligidan keksa otligiga qadar bari o‘zi tomonidan xotiralar tarzida yod etiladi. Uning qari va qoqsuyak tanasi, osilgan terisi ham bir vaqtlar bo‘ydor, chopog‘on va o‘zgacha ko‘rinishga ega otligidan darak berardi. Uning otlar uyuridagi xokisor, beziyon turishi yosh tulporlarning g‘ashini keltirar, uning ustidan kalaka qilgandek yosh va navqiron harakatlari esa qari Xolstomerga o‘z yoshligini eslatardi. Ayniqsa o‘z o‘g‘liga qarab, osmondagi yulduzni ko‘zlab yugurgilagan vaqtlari esiga tushardi. Uning yosh otlarga hikoyasi oddiy

dehqon ot naslidan yaratganligi bilan boshlangan edi. Uning g‘ayritabiiy ko‘rinishi: yorqin jigarrang tusdagi uchta oq yo‘llik dog‘i borligi insonlarga yoqmasa, o‘zi kabi hayvonlarni hayratlantirar, e‘tiborini tortardi. Bu ko‘rinishidan tashqari dehqon naslli otlarga xos bo‘lmagan o‘zgacha xususiyatga chopog‘onlik, tezkorlikka ega edi. Hayoti davomida ko‘p egalarni ko‘rgan Xolstomer, o‘zining o‘zidan boshqa hech kimni yoqtirmaydigan egasi harbiy ofitserni juda yoqtiradi, undagi mag‘rurlik, qaytmaslik, o‘zini sevish hislatlari otni o‘ziga tortar edi[2].

Bundan tashqari u otga mehribon bo‘lmasa, yomonlik ham qilmagan, og‘ir jazolamagan edi. Lekin u umri davomida shunday qonxo‘r insonlarni ko‘rganki, shuncha mehnatlari evaziga oddiy xato uchun ayovsiz sazolashgan, hatto oyoqlarini sindirishgan edi. Uning tilidan insonlardagi meshchanlik, o‘sha davr jamiyatiga xos illatlar ochiq-oydin aytiladi: “...insonlar meniki degan so‘zni yoqtiradilar, lekin hayronmanki ular meniki degan mutlaqo ularniki emas, yoki ularga mutloq notanish: yirik yer egalari bu yer meniki deyishadi, lekin bu yer qanday yer, kimlar ishlaydi xabarlari yo‘q, bu ayol meniki deyishadi, u ayol esa aslida boshqasiga ko‘ngil qo‘ygan, bu uy meniki deydilar, lekin unda yashamaydilar, mulk sifatidagina saqlab turadilar”. Ot qariligi va kuni tugaganligi tufayli oxiri terisi olinib, qolgan qismi itlar va bo‘rilarga ozuqa bo‘ldi. Undan faqat katta bosh suyagi va ikki suyak qoldi. Uni ham dehqon zarur bo‘ladi, deya o‘zi bilan olib ketdi. Yozuvchi otning o‘lishi holatini keltirar ekan uning hatto o‘ligi ham xorlanmasdan, oxirigacha insonlarga nafi tekkanligi haqida hikoya qiladi. Otning o‘limiga zid ravishda bir paytlar uning xo‘jayini bo‘lgan Serpuxovskiyning o‘limi ko‘rsatiladi[4].

Yer yuzida ortiqcha bo‘lgan bu tana, boshqalarga ham kerakmasdek edi, uni faqat amali va nasliga ko‘ra amaldorlardan bo‘lgani uchungina hurmat bilan dafn etishlari zarur edi. Aslida esa, undan chirigan teri va suyakdan boshqa biror narsa qolmagan edi, deb yozadi yozuvchi. Bu bilan Alloh yaratgan yaratilgan kimligi emas, qanday yashagani muhim degan azaliy g‘oyani ilgari surgandek bo‘ladi.

Xolstomer o‘z hayotida baxtli onlarni juda kam ikki yilgina davom etdi degan bo‘lsa-da, u ot sifatida butun umr o‘z egalarga sodiq xizmat qildi, o‘z taqdiriga yozilgan kechmishda yashadi. Qadr-qimmatga yetarlicha ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, haqiqiy otga xos eng yaxshi xususiyatlarga ega ot sifatida umrini o‘tkazdi. Xolstomer obrazi orqali yozuvchi munosib hayot, munosib o‘lim kabi o‘sha davr va makon kishilari uchun eng muhim jihatni ko‘rsatadi, hayvonlarga bo‘lgan asl munosabatni ochib beradi[2].

Kanadalik taniqli yozuvchi, hayvonlar haqidagi asarlari bilan mashhur bo‘lgan E. Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” qissasida otni to‘laqonli jonivor sifatida bilib olamiz. E.Seton-Tompsonning olim aqli va adib qalbi o‘quvchini ruhlanitirib saboq beradi. Qissada yozuvchi ozodlik va erk uchun kurash, hatto bular uchun jonidan kechgan yovvoyi ot-mustang haqida hikoya qilinadi[3].

Umuman aytganda, zikr qilingan asarlarda tarlon obrazi nafaqat hayvon, balki inson taqdiri, erkinlik, sadoqat, mehnat va ezgulik g‘oyalarini ifodalovchi badiiy timsol sifatida talqin etiladi. Har uchala adib ot obrazi orqali jamiyatning axloqiy-ijtimoiy muammolarini yoritib, inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Asarlar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarlon obrazi jahon nasrida umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi universal badiiy obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, har bir yozuvchi uni o‘z milliy dunyoqarashi va estetik tamoyillari asosida o‘ziga xos tarzda gavdalandirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Alvado, Gulsari! – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Tolstoy L.N. Xolstomer: Hikoyalar va qissalar. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1986.
3. Seton-Tompson E. Yovvoyi yo‘rg‘a (Mustang Peyser). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Qosimov B., Yo‘ldoshev Q., Valixo‘jayev B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. Karimov N. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979.
7. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.